

“NKMK” AJ Kuzatuv kengashining
2024-yil 7-iyundagi
4-son majlis bayonnomasiga 24-ilova

**“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati va uning tarkibiy
bo‘linmalariga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviv
xatti-harakatlar, ochiqlik va monopoliya to‘g‘risidagi qonun buzilish holatlari
yuzasidan kelib tushgan xabarlarni qabul qilish hamda ko‘rib chiqish
R E G L A M E N T I**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Reglament “NKMK” AJ va uning tarkibiy bo‘linmalari (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat)da korrupsiyaga nisbatan murosasiz muhitni shakllantirish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik, korrupsiyaviv xatti-harakatlar, ochiqlik va monopoliya haqida Jamiyat manfaatlarini ko‘zlab xabar bergan shaxslarni himoya qilish bo‘yicha ta’sirchan choralarini ko‘rish va ularni himoya qilish bilan bog‘liq boshqa munosabatlarni tartibga solish va tegishli ta’sir choralarini ko‘rish maqsadida ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Reglament Jamiyat xodimlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunchiligi va Jamiyatning korrupsiyaviv xatti-harakatlar, ochiqlik va monopoliyaga oid ichki idoraviy hujjatlari talablari buzilishi, manfaatlar to‘qnashuvi sodir etilganligi, shuningdek Odob-axloq kodeksi talablari buzilishi holatlari bo‘yicha kelib tushgan xabarlar bilan ishlashning asosiy tamoyillari, shuningdek, xabarlarni qabul qilish, ularni ro‘yxatdan o‘tkazish va ko‘rib chiqish, shuningdek, Jamiyat rahbariyatiga hisobot taqdim etish tartibini belgilaydi.

3. Mazkur Reglamentning maqsadlari uchun quyidagi asosiy tushunchalar va atamalardan foydalaniladi:

korrupsiyaga oid huquqbazarlik haqida xabar – (keyingi o‘rinlarda – xabar deb yuritiladi) korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish to‘g‘risidagi ma’lumotlar bayon qilingan og‘zaki, yozma yoxud elektron shakldagi murojaat;

korrupsiya – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida, qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korrupsiyaviv xatti-harakatlar – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlar yo‘lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo‘lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog‘oz, boshqa ko‘rinishdagi mulk, mulkiy huquqlar, mulkiy xarakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatshiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlar undirish (pora

olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o‘z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

korrupsiyaviy huquqbuzarlik – sodir etilganlik uchun O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi javobgarlik belgilab qo‘yilgan korrupsiya alomatlariga ega xatti-harakat;

ochiqlikni ta’minlash haqidagi qonunchilik hujjatlari - davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini, axborot olish erkinligini ta’minlash orqali jamoatchilik nazoratini takomillashtirish, shuningdek, ochiqlik sohasidagi qonun va qonun osti hujjatlar, shu jumladan ichki idoraviy hujjatlar;

monopoliya - iqtisodiyotning bir sohasida tanho hukmronlik asosida bozorni tashkil etish shakli;

manfaatlar to‘qnashuvi - shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o‘z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, Jamiatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlar o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to‘qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan (ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi) vaziyat;

ishonch telefoni – Jamiatga telefon orqali kelib tushadigan murojaatlarni markazlashgan holda qabul qilish, tasniflash va tizimlashtirish, shuningdek, o‘z vaqtida va sifatli ko‘rib chiqilishini monitoring qilish imkonini beruvchi tizim;

xabar beruvchi – aloqa kanallari orqali Jamiatdagagi korrupsiyaviy xatti-harakatlar hamda boshqa qonunbuzilish holatlari to‘g‘risida axborot berish uchun murojaat qilgan har qanday jismoniy va yuridik shaxslar;

xabar beruvchi sodir etilgan yoki sodir etilishi mumkin bo‘lgan meyorlarga xilof xatti-harakatlarning taxmin qilingan holatlari yoki Jamiatning missiyasi va obro‘yiga zarar yetkazadigan yoki yetkazishi mumkin bo‘lgan har qanday harakatlar haqida xabar berishi shart.

xabar beruvchi haqidagi sir – xabar beruvchining shaxsiga oid ma’lumotlar yoki boshqa sir tutilishi zarur bo‘lgan ma’lumotlarning uchinchi shaxslarga oshkor qilinmasligi;

uchinchi shaxslar - fuqarolik huquqida bevosita fuqarolik huquqiy munosabatlarda ishtirok etmaydigan, lekin vujudga kelgan huquqiy munosabatda muayyan darajada huquq va majburiyat tug‘diradigan subyektlar. Uchinchi shaxslar bilan munosabatlarda manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l quyilmasligi, shuningdek maxfiy va tijorat siriga oid ma’lumotlarni oshkor etilmaligi alohida nazoratga olinishi lozim;

taalluqli xabar – Jamiatdagagi korrupsiyaviy xatti-harakatlar, ochiqlik va monopoliyaga oid harakatlar va manfaatlar to‘qnashuvi, Odob-axloq kodeksi talablari hamda boshqa qonunbuzilishlar haqidagi axborotdan iborat bo‘lgan xabar;

xodim – Jamiat bilan mehnat munosabatlariga kirishgan jismoniy shaxs;

xodimning shaxsiy manfaatdorligi – xodim tomonidan o‘z xizmat vazifalarini bajarishi chog‘ida o‘zi yoki uchinchi shaxslarning manfaatlari yo‘lida xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir qilishi mumkin

bo‘lgan pul mablag‘lari, moddiy yoki nomoddiy boyliklar, boshqa mol-mulk va imtiyozlar ko‘rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (shaxsiy, ijtimoiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijoriy yoki notijoriy manfaatlari);

4. Jamiyat korrupsiyaviy harakatlar haqida axborot berishga mo‘ljallangan aloqa kanallarining ishini quyidagi tamoyillar asosida tashkil etadi:

konfidensiallik va xavfsizlik – aloqa kanallaridagi xabarlardan foydalanishga ruxsat berilgan Jamiyatning barcha vakolatlari shaxslari ushbu xabarlarni vakolatga ega bo‘limgan shaxslarga berish (oshkor qilish)ga haqqi yo‘q. Agar xabar beruvchi o‘z xabarini yuborganligi haqida boshqa xodimlarga yoki uchinchi shaxslarga o‘z xohishiga ko‘ra, jumladan, ehtiyyotsizligi natijasida oshkor qilgan bo‘lsa, Jamiyat uning oshkor bo‘lishiga javobgar bo‘lmaydi;

qonuniylik – Jamiyat aloqa kanallariga kelib tushadigan xabarlarni qabul qilish, ro‘yxatga olish, qayta ishslash va ko‘rib chiqish qat’iy ravishda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari, Jamiyatning ichki idoraviy hujjatlari va ushbu Reglamentga muvofiq amalga oshiriladi;

xabar beruvchining ta’qib qilinmasligi – aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy harakatlar haqida o‘z xohishiga ko‘ra xabar bergen jismoniy va yuridik shaxs, xususan Jamiyat xodimi xabarning mazmunidan va korrupsiya faktini beg‘araz maqsadda vijdanan ma’lum qilgan bo‘lsa, lekin bu fakt o‘z tasdig‘ini topishidan qat’iy nazar biron-bir javobgarlikka tortilmaydi;

xabar beruvchini ta’qib qilish – himoyalangan faoliyatda ishtirok etishi natijasida ariza beruvchiga tavsiya etilgan, tahdid qilingan yoki unga nisbatan qilingan har qanday bevosita yoki bilvosita zarar yetkazish yoki zararli harakatlarni anglatadi. Ta’qib qilish boshqalar qatorida, kamsitib murojaat qilish, ish haqini o‘zgartirish, lavozimni pasaytirish yoki boshqa joyga ko‘chirish ishdan bo‘shatishni o‘z ichiga olishi mumkin;

xabar beruvchi bilan majburiy tartibdagi qayta aloqa – agar xabar anonim bo‘lmasa, uni ko‘rib chiqish natijalari Jamiyat tomonidan xabar beruvchiga yetkazilishi lozim;

ta’sir choralarini qo‘llashning majburiyligi – korrupsiya fakti tasdiqlangan taqdirda, Jamiyat aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish uchun O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq harakat qiladi;

davlat organlari va tashkilotlari – davlat organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, davlat muassasalari, davlat unitar korxonalari, yuridik shaxs maqomiga ega davlat maqsadli jamg‘armalari hamda ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo‘lgan xo‘jalik subyektlari va ustav fondida (ustav kapitalida) ushbu xo‘jalik subyektlarining ulushi 50 foiz va undan yuqori bo‘lgan yuridik shaxslar;

ish beruvchi – jismoniy shaxslar bilan mehnat munosabatlariga kirishgan, mulk shaklidan qat’i nazar, korxonalarda, muassasalarda, tashkilotlarda umumiy tashkiliy-boshqaruv, ma’muriy-xo‘jalik vazifalarini amalga oshiradigan va yuridik ahamiyatga ega harakatlarni bajarish vakolati berilgan shaxs;

komplayens xizmati – Jamiyatda korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish choralarini ko‘rishga mas’ul tuzilma.

2-bob. Xabar beruvchini himoya qilishning asosiy prinsiplari.

5. Xabar beruvchini himoya qilishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:
qonuniylik;
xabarlarni Jamiyat manfaati sifatida ko‘rib chiqish;
himoya qilishning adolatliligi;
xolislik prinsiplari;
xabar beruvchi haqidagi ma’lumotlarning sir saqlanishi;
xabar beruvchining sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish.

3-bob. Komplayens xizmatining xabar beruvchini himoya qilish borasidagi vakolatlari

6. Komplayens xizmati qonunchilik va Jamiyatning ichki hujjatlarida belgilangan vakolatlari doirasida:

- xabar beruvchining shaxsiy va ishchanlik obro‘yini himoya qiladi;
- xabar beruvchining shaxsi va olingan xabarning sir tutilishini ta’minalash choralarini ko‘rishiда ishtirok etadi;
- xabar beruvchiga nisbatan ta’qib, tazyiq va mehnat qonunchiligining boshqacha tartibda buzilishi holatlari aniqlanganda yuqori turuvchi organga, korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga yoki himoya qilishni ta’minlovchi davlat organlariga murojaat qilish choralarini ko‘radi;
- xabar beruvchiga nisbatan himoya choralarini qo‘llash to‘g‘risidagi qarorlarning ijrosini ta’minalashga ko‘maklashadi;
- xabar beruvchini himoya qilish masalalarida boshqa davlat organlari va tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;
- xabar beruvchining shaxsiga doir ma’lumotlarning oshkor etilmasligini ta’minalaydi.

Komplayens xizmati qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

4-bob. Xabar beruvchining huquqlari

7. Xabar beruvchi quyidagi huquqlarga ega:
shaxsiy va mulkiy xavfsizligini ta’minalashni talab qilish;
himoya choralarini qo‘llash yoki ularni bekor qilish to‘g‘risidagi ariza bilan murojaat etish;
qonunchilikda taqiqilanmagan himoya vositalarini himoya qilishni ta’minlovchi organlar bilan kelishgan holda, shaxsiy tashabbusi bilan tanlash yoki o‘zgartirish;

himoya qilishni ta'minlovchi davlat organlaridan himoya choralarining qo'llanilishi va ularning xususiyati haqida bilish;

yaqin qarindoshlariga nisbatan himoya choralarini qo'llashni talab qilish;

xabar beruvchini himoya qilishni ta'minlovchi davlat organlaridan huquqiy maslahat olish;

davlat organlarining qarorlari, mansabdar shaxslarning harakatlari (harakatsizligi), mehnat qonunchiligi buzilishi ustidan shikoyat qilish;

xabar qilingan yoki oshkor qilingan ma'lumot manbasining sir saqlash;

psixologik yordam olish;

xabar bergenlik natijasida o'ziga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni undirish maqsadida davlat boji to'lamasdan sudga murojaat qilish.

Xabar beruvchi majburlov yoki tahdid ostida sodir etilgan qilmishi uchun javobgarlikdan O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ozod qilinadi.

Xabar beruvchi qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

5-bob. Xabar beruvchining majburiyatları

8. Xabar beruvchi:

vakolatli davlat organlari va Jamiat tomonidan qabul qilingan qarorlarni, shuningdek ularning qonuniy talablarini bajarishi;

o'ziga nisbatan qilingan har bir tahdid yoxud g'ayriqonuniy harakat yoki harakatsizlik to'g'risida vakolatli davlat organlari va Jamiatning Komplayens xizmatiga darhol xabardor qilishi;

o'ziga nisbatan qo'llanilgan himoya choralarini haqidagi ma'lumotlarni oshkor etmasligi;

xabar berishda beg'araz bo'lishi, boshqa shaxslarning nufuzi va ijtimoiy mavqeiga qasddan yoki shaxsiy adovat asosida putur yetkazmasligi shart.

Xabar beruvchining zimmasida qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

6-bob. Ish beruvchining huquqlari

9. Ish beruvchi quyidagi huquqlarga ega:

xabarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha aybdor xodimlarni bevosita haqiqiy zarar uchun intizomiy va moddiy javobgarlikka tortish;

xabar beruvchining roziligi asosida, uning sha'ni va qadr qimmatini kamsituvchi harakatlarning oldini olish maqsadida, xabar beruvchining ish joyini o'zgartirish;

xabar beruvchini himoya qilish masalalarida boshqa davlat organlari va tashkilotlar bilan hamkorlik qilish;

xabar beruvchini vakolat doirasida rag'batlantirish.

7-bob. Ish beruvchining majburiyatlari

10. Ish beruvchi quyidagilarga majbur:

kelib tushgan xabarni tegishli tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilishi, belgilangan muddatlarda ko‘rib chiqilishi va tegishli choralarining ko‘rilishini ta’minlash;

xabar beruvchiga nisbatan himoya choralarini qo’llash to‘g‘risidagi qarorlarning ijrosini ta’minlash;

xbabar beruvchining shaxsiy va ishchanlik obro‘yini himoya qilish;

xbabar beruvchiga nisbatan asossiz intizomiy jazo qo’llanishi, u bilan mehnat shartnomasini bekor qilish yoki boshqa ishga o‘tkazish, lavozimini pasaytirish, kamsitish, bosim o‘tkazish va boshqa shakllarda ta’qib qilinishiga yo‘l qo‘ymaslik;

xbabar beruvchining lavozimini o‘zgartirish va mansab pog‘onasini yoki toifasini ko‘tarilishini cheklamaslik;

xbabar beruvchining ish hajmini qayta taqsimlash, o‘tkazish, majburiyatlarni rad etish ishlarini amalga oshirmaslik;

xbabar beruvchiga ish haqini to‘lashda va rag‘batlantirishda kamsitmaslik;

xbabar beruvchining ta’lim olishi, malaka oshirishi yoki o‘zining kasbiy rivojlanishi imkoniyatlarini cheklamaslik;

xbabar beruvchini mavjud axborot yoki tashkilot ixtiyoridagi boshqa moddiy resurslardan foydalanishini cheklamaslik;

xodimning Jamoa shartnomasida ko‘rsatilgan boshqa huquqlarini cheklamaslik;

xbabar beruvchining ish sharoitlariga zarar yetkazmaslik.

8-bob. Xabarlarning toifalari

11. Xabarlar quyidagi toifalardan iborat:

mulkni maqsadsiz yoki noqonuniy sarflash yoxud talon-toroj qilish;

xizmat mavqeidan foydalangan holda firibgarlik;

hujjatlarni soxtalashtirish yoki qalbakilashtirish;

mansab vakolatini suiiste’mol qilish, mansab vakolati doirasidan chetga chiqish, harakatsizlik, sovuqqonlik;

poraxo‘rlik yoki qonunga xilof ravishda boshqa turdag'i moddiy yoxud nomoddiy naf olish;

monopoliya, ochiqlik va davlat xaridlari yoki davlat-xususiy sherikchilik sohalaridagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi;

manfaatlar to‘qnashuvi va Odob-axloq kodeksi talablarining buzilishi.

9-bob. Korrupsiya, ochiqlik va monopoliyaga oid harakatlar haqida xabar berish uchun aloqa kanallari

12. Taalluqli xabar quyidagi aloqa kanallaridan yuborilishi mumkin:

Jamiyatning rasmiy veb-sayti orqali (<https://www.ngmk.uz/>);

ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali (https://twitter.com/jsc_nmmc, <https://www.facebook.com/nkmkofficial>, <https://www.instagram.com/nkmk.official>, <https://www.linkedin.com/company/jsc-nmmc>, <https://www.youtube.com/nkmkofficial>)

Telegram-bot kanali orqali (https://t.me/nkmk_murojaat_bot);

Jamiyatning ishonch telefon raqamlari orqali (79-227-72-22, rasmiy veb-saytga joylashtirilgan Komplayens xizmati xodimlarining xizmat telefon raqamlari);

Jamiyatning elektron pochta manzillari orqali (info@ngmk.uz, nkmk@exat.uz, rasmiy veb-saytga joylashtirilgan Komplayens xizmati xodimlarining elektron pochta manzillari);

Jamiyatga og‘zaki, yozma yoxud elektron shaklda (shaxsan) murojaat qilish orqali;

Komplayens xizmatining mas’ullariga shaxsan murojaat qilish orqali;

huquqni muhofaza qiluvchi organlar orqali;

mazkur Reglamentda ko‘rsatilmagan boshqa aloqa kanallari orqali.

13. Jamiyat aloqa kanallari to‘g‘risidagi axborotni Jamiyatning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqdagi sahifalari hamda kanallariga joylashtiradi, shuningdek xodimlarga davriy ravishda yuboriladigan elektron tarqatma hamda o‘quv materiallariga kiritadi, Jamiyat binosida joylashtiriladigan tematik plakatlar va hokazolarda aks ettiradi.

10-bob. Aloqa kanallari orqali kelib tushayotgan taalluqli xabarlarni qabul qilish

14. Jamiyatning aloqa kanallari orqali kelib tushadigan xabarlarni qabul qilish hamda ro‘yxatga olish uchun Ofis-menejer bo‘limi hamda Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariaga oid ishlarni nazorat qilish va muvofiqlashtirish bo‘limi mas’ul hisoblanadi.

Bunda, taalluqli xabar kelib tushganda Jamiyat mas’ul xodimi xabar beruvchi bilan elektron yozishma yo‘li bilan yoki telefon orqali bog‘lanib zarur axborotni aniqlashtiradi, xabarni ro‘yxatga oladi va ma’lumotni Jamiyat rahbariyatiga kiritadi.

15. Jamiyat mas’ul xodimi kelib tushadigan xabarlarni haftaning dushanba-juma kunlari soat 08:00 dan 17:00 ga qadar tahlil qiladi. Agar murojaatlar ish vaqtidan tashqari vaqtda yoki dam olish kunlari kelib tushsa, mazkur murojaatlar navbatdagi ish kunida ko‘rib chiqiladi.

Agar xabar beruvchi o‘z xabarini tasdiqlash uchun qo‘srimcha materiallarga, jumladan, fotomateriallar, hujjalalar, audio va videoyoziuvlarga ega bo‘lsa, murojaatni qabul qilishga mas’ul xodim ularni taqdim etish bo‘yicha foydalilaniladigan aloqa kanallarini ko‘rsatadi. Bunda, taqdim etilgan ma’lumotlarni konfidensialligini ta’minlash murojaatni qabul qilgan va ro‘yxatga olgan xodimlar zimmasiga yuklanadi. Olingan ma’lumotlar taalluqli murojaatga ilova sifatida rasmiylashtiriladi.

16. Jamiyatning quyidagi aloqa kanallaridan kelib tushgan taalluqli xabarlar Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-maydagi 341-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risida”gi Namunaviy nizom asosidagi “NKMK” AJning ichki idoraviy hujjatida nazarda tutilgan tartibda ro‘yxatga

olinadi va Jamiyat rahbariyati topshirig‘i (munosabat belgisi) asosida mas’ul tuzilmaga chiqariladi.

17. Korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi, ochiqlik va monopoliya to‘g‘risida qonun buzilish holatlari bo‘yicha Jamiyatning aloqa kanallaridan kelib tushgan taalluqli xabarlar Komplayens xizmati tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Odob-axloq kodeksi talablari buzilishi bo‘yicha Jamiyatning aloqa kanallaridan kelib tushgan xabarlar Odob-axloq komissiyasi tomonidan tegishli tartibda ko‘rib chiqiladi.

18. Xabar beruvchilarga sodir etilgan yoki sodir etilishi mumkin bo‘lgan korrupsiyaviy harakatlar, ochiqlik va monopoliya to‘g‘risida anonim xabarlar qoldirish imkoniyati mavjud.

19. Korrupsiyaviy harakatlar, ochiqlik va monopoliya to‘g‘risida anonim xabar kelib tushgan hollarda, murojaatni qabul qilgan mas’ul, imkon mavjud bo‘lgan taqdirda, quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

Jamiyatga kelib tushgan xabarga javob berish uchun xabar beruvchi bilan bog‘lana olmasliklari mumkinligi haqida xabar beruvchiga ma’lum qilishi;

qo‘sishimcha zarur ma’lumot olish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda xabarni to‘liq va har tomonlama o‘rgana olmaslik mumkinligini bildirishi;

xabar beruvchiga u bilan bog‘lanish uchun anonim aloqa kanali tashkil qilishni taklif qiladi (shaxs ko‘rsatilmagan elektron pochta manzili, telegramdagi maxfiy chat va boshqalar.);

xabar beruvchi qarshi ariza yozgan taqdirda ham arizadagi ma’lumotlar tegishli mas’ullarga tekshirish uchun yuborilishi va bu haqida murojaat muallifiga xabar bermagan holda o‘rganib chiqilishi mumkin.

Anonim xabarlar qonunchilikka asosan o‘rganilmasligi, ammo xabarda keltirilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kelgusida oldini olish maqsadida tegishli chora-tadbirlar ko‘rilishi uchun xizmat qilishi mumkin.

20. Jamiyat xodimlari tomonidan olingan xabarlarni ko‘rib chiqish jarayonida korrupsiyaviy huquqbazarlik sodir etishning sabab va sharoitlari ham tahlil qilinadi va kelgusida ularning oldini olish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha tadbirlar amalga oshiriladi.

21. Olingan xabarlar bo‘yicha barcha taalluqli materiallar, hujjatlar va ma’lumotlar (shu jumladan, qabul qilingan qarorlar va xabar beruvchilarga yuborilgan javoblar) Jamiyatning Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga oid ishlarni nazorat qilish va muvofiqlashtirish bo‘limida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan muddatga, shu bilan birga 10 yildan kam bo‘lmagan muddatga saqlanishi lozim.

22. Taalluqli xabar Jamiyatning hududiy (tarkibiy) bo‘linmalariga kelib tushgan taqdirda, uni qabul qilgan mas’ul xodimlar zudlik bilan yozma shaklda hududiy (tarkibiy) bo‘linma rahbarini va Komplayens xizmati mas’ulini kelib tushgan xabar to‘g‘risida xabardor qiladi, ular o‘z navbatida ushbu xabarni Jamiyatning markaziy apparatidagi Komplayens xizmatiga yuboradi. Komplayens xizmati olingan xabarni mazkur reglamentga muvofiq ko‘rib chiqadi.

23. Korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi, ochiqlik va monopoliya to‘g‘risida qonun buzilish holatlari, shuningdek Odob-axloq kodeksi talablari buzilishi bo‘yicha kelib tushgan xabarlar Reyestri Jamiyat bo‘linmalari tomonidan yuritiladi, shuningdek yakuniy hisobot Komplayens xizmatida umumlashtiriladi.

24. Jamiatning hech bir xodim o‘z mavqeidan foydalanib, boshqa xodimlarning o‘z huquqlarini amalga oshirishga yoki o‘z vazifalarini bajarishiga to‘sqinlik qilishi mumkin emas.

11-bob. Korrupsiyaviy harakatlar, ochiqlik va monopoliya haqidagi xabarlarni ko‘rib chiqish

25. Komplayens xizmatiga kelib tushgan barcha taalluqli xabarlar ushbu tuzilmaning mas’ul xodimlari yoki Jamiat rahbari topshirig‘iga asosan boshqa bo‘linmalar tomonidan ko‘rib chiqiladi.

26. Korrupsiyaviy harakatlar, ochiqlik va monopoliya to‘g‘risidagi xabarlarni ko‘rib chiqish jarayoniga, harakatlari ustidan taalluqli xabar kelib tushgan yoki ko‘rib chiqish jarayonida manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xodimlarni jalg qilish man etiladi.

27. Taalluqli xabar kelib tushganda Komplayens xizmati xodimi dastlabki tekshirish o‘tkazib, uning taalluqlilagini tahlil qiladi, ya’ni xabarda ko‘rsatilgan ma’lumotning Jamiat tizimiga taalluqli korrupsiyaga oid huquqbazarlik va (yoki) manfaatlar to‘qnashuvi holatlari mavjudligi tekshiradi.

Dastlabki tekshirish taalluqli xabar Komplayens xizmatiga kelib tushgan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida amalga oshiriladi.

28. Mazkur Reglamentga muvofiq dastlabki tekshirish natijalaridan qat’iy nazar, bu haqdagi axborot Reysterga kiritiladi.

29. Agar Komplayens xizmati xodimi xabar taalluqli emas degan xulosaga kelsa, bu xabar bir ish kuni ichida Jamiatning tegishli tuzilmasiga o‘tkazish uchun rahbariyatga bildirishnomha kiritadi.

30. Agar xabarda korrupsiyaviy harakatlar, ochiqlik, monopoliya to‘g‘risidagi qonun buzilish holatlari va manfaatlar to‘qnashuvi haqida ma’lumot hamda xizmat tekshiruvini o‘tkazish uchun yetarli asoslar mavjud bo‘lsa, Komplayens xizmati xodimi ichki idoraviy hujjatda belgilangan tartibda xizmat tekshiruvini o‘tkazish tashabbusi bilan chiqadi.

31. Taalluqli xabarlarni mazmunan ko‘rib chiqish Jamiatga kelib tushgan kundan e’tiboran bir oy ichida, tekshirish o‘tkazish, qo’shimcha materiallarni so‘rab olish yoxud boshqa chora-tadbirlar ko‘rish zarur bo‘lgan hollarda, ularni ko‘rib chiqish muddatlari, Jamiatning rahbari hamda o‘rnbosarlari tomonidan istisno tariqasida uzog‘i bilan bir oyga uzaytirilishi mumkin, bu haqda murojaat etuvchiga (anonim murojaatlardan tashqari) xabar qilinadi.

32. Taalluqli xabarlarni ko‘rib chiqish jarayonida ma’muriy huquqbazarlik yoki jinoyat belgilari aniqlangan taqdirda tegishliligi bo‘yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlariga qonun hujjalari belgilangan tartibda yuboriladi.

33. Taalluqli xabarlarni ko‘rib chiqish yakunlariga ko‘ra, o‘rganish natijalari va qo‘llanilgan ta’sir choralarini ko‘rsatilgan javob xati Komplayens xizmati tomonidan tayyorlanib, Jamiat rahbari, o‘rnbosarlari yoki Komplayens xizmati rahbari imzosi bilan rasmiylashtiriladi va belgilangan tartibda xabar beruvchiga yuboriladi.

34. Ijtimoiy tarmoqdagi kanal va sahifalar hamda telegram-bot orqali kelib tushgan taalluqli xabarlarga javob xabar beruvchiga elektron shaklda ijtimoiy tarmoqdagi kanal va sahifalar yoki telegram-bot orqali yuborilishi mumkin.

12-bob. Hisobdorlik

35. Reyestrda Komplayens xizmati xodimlari, xabarlarni ko‘rib chiqishda ishtirok etgan tegishli boshqa Jamiatning xodimlari (faqat shunday xabarlarga doir), Jamiat rahbari hamda Kuzatuv kengashining Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo‘mitasi foydalanishi mumkin.

36. Reyestr ma’lumotlari asosida Komplayens xizmati har chorakda Jamiat rahbariga hamda zaruriyatga ko‘ra, Kuzatuv kengashi va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga korrupsiyaga oid harakatlar haqidagi xabarlarni qabul qilish to‘g‘risidagi hisobotni taqdim etadi va unda quyidagilar ko‘rsatiladi:

kelib tushgan xabarlar, shundan taalluqli xabarlar va ko‘rib chiqilgan taalluqli xabarlar soni;

korrupsiyaviy harakatlar, ochiqlik, monopoliya va manfaatlar to‘qnashuvi holatlari tasdiqlangan taalluqli xabarlar soni;

ko‘rib chiqish muddatlari buzilgan taalluqli xabarlar soni;

taalluqli xabarlarni ko‘rib chiqishning o‘rtacha muddati;

xabar beruvchilar tomonidan eng ko‘p foydalaniladigan aloqa kanallari va boshqa statistik ma’lumotlar.

13-bob. Yakunlovchi qoidalar

37. Mazkur Reglament talablarini buzish belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo‘ladi.

38. Mazkur Reglament, murojaatlar va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi o‘zgarganda qayta ko‘rib chiqilishi mumkin.

39. Mazkur Reglamentga kiritiladigan har qanday o‘zgarishlar Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

“Navoiy kon-metallurgiya kombinasi” aksiyadorlik jamiyati va uning tarkibiy bo‘linmalariga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar, ochiqlik va monopoliya to‘g‘risidagi qonun buzilish holatlari yuzasidan kelib tushgan xabarlarni qabul qilish hamda ko‘rib chiqish reglamentiga ilova

Jamiyat va uning tarkibiy bo‘linmalariga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar, ochiqlik va monopoliya to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish

REYESTRI